

f.f.d. Muhibova Ulpatxon
TDSHI “Janubiy Osiyo tillari” kafedrasi dotsenti
Norbutayeva Nodiraxon
TDSHI Sharq filologiyasi 2- bosqich
Urdu-ingliz guruhi talabasi

BOBURIYLAR DAVRIDA (XV-XVIII ASRLARDA) BHAKTI TA’LIMOTI VA UNING TARG’IB ETILISH JARAYONI

Kalit so’z va iboralar: Bhakti yo’li, kshatriylar, “Ramayana”, “Mahabharat”, kastachilik tizimi, Ram va Krishna ma’budlari, “Boburiylar saltanati”, Akbarshoh, ong inqilobi.

Ключевые слова и понятия: Путь Бхакти, кшатрии, «Рамаяна», «Махабхарат», кастовая система, Бог Рам и Бог Кришна, «Бабурская империя», Акбар шах, революция разума.

Key words and concepts: Bhakti’s way, Kshatriyas, “Ramayana”, “Mahabharata”, the system of kasta, Lord Rama and Lord Krishna, “Babur’s kingdom”, Akbar shah, consciousness revolution.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Boburiylar saltanati davrida (XV-XVIII asrlar) Bhakti ta’limoti va uning targ’ib etilish jarayoni, brahmanlarning Hindiston diniy hayotida o’z mavqelaridan ayrilganliklari, kshatriylarnng hinduizmdagi o’rning oshib borishi, kastachilik tizimining kuchayib borishi natijasida xalqning dindan uzoqlashish jarayonini, jamiyatda yangi bir mafkuraning paydo bo’lishi haqida so’z yuritilgan. Tadqiqotchi tahlil jarayonida Hindistonda o’rta asrlarda avj olgan tabaqalashuvning to’xtatilishi hamda jamiyatda tenglikni ta’minlash uchun faylasuflar tomonidan ilgari surilgan bhakti yo’li va uning targ’ib etilayotgan g’oyalarining jamiyat tomonidan qabul qilinishi maqolada dalillarga tayangan holda yoritilib bergan.

Аннотация: В этой статье речь идет о распространение учения Бхакти во времена правления Бабуридской империи (XV-XVIII в), о лишение брахманов в религиозной жизни Индии своих прав, о повышении роли кшатриев в индуизме о появлении новой идеологии в обществе и об отдалении народа от религии в связи с повышением роли системы касты.

Исследователь основываясь на научных фактах раскрыл тему воздействия и принятия обществам нового учения бхакти в целях установление равенства.

Annotation: This article reveals process of Bhakti during the reign of Babur’s kingdom (XV-XVIII centuries), decrease of Brahmans’ role, as well as increase the role of the Kshatriya’s in the religious life of India, the results of the development of castes system and people’s invisible actions in religion. The researcher in the analysis the issue of inequality in society in India during the Middle Ages together with philosophers’ ideas of Bhakti’s publicity.

Hindistonning shimoliy hududlari XIII-XV asrlarga kelib kichik-kichik davlatlarga bo’linib ketdi va buni natijasi o’laroq mamlakatda birlik yo’qolib,

markazlashgan holda rivojlanish birmuncha to’xtagan edi. Dehli saltanati ham inqirozga yuz tutib, Hindiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan murakkab sharoitni boshidan kechirar va taxt uchun kurashlar ham boshlanib ketdi. Xalq qashshoqlashib, noroziliklar kun sayin ortib, Hindiston davlatining zaiflashishi Boburning Hind diyoriga kirib kelishi va u yerda “Boburiylar saltanati”ning o’rnatilishiga zamin bo’ldi.

O’rta asrlar hind jamiyatida o’ziga xos ahamiyat kasb etadigan, adabiy jarayonlarga ta’sir ko’rsatgan bir qancha diniy-falsafiy qarashlar tizimini tilga olish mumkin, ular: *hindu*, *buddaviylar*, *bhakti ta’limoti*, *sikxlar ta’limoti*, *sidx* va *natx sektalarining* qarashlari hamda nasroniylikka va islomga xos qarashlardir. Bu qarashlar ichidan eng qadimgisi Bhakti yo’li bo’lib, u xalq orasida yetakchi bir mafkuraviy va ma’naviy qurol sifatida boshqa yo’llarga nisbatan keyinroq, ya’ni kastachilik tizimi o’zining me’yor chegaralaridan chiqib, insonni haqoratlash darajasiga yetgan davrda shakllangan. U o’zida har bir dinning asl mohiyatini tashkil etgan tushunchalarni mujassamlashtirgani va ularga qat’iy rioya qilib aniq natijalarga erishgani bois boshqa yo’llarga nisbatan bag’rikeng va tenglikni ta’minlovchi yo’l sifatida baholanadi. Tadqiqotchilarning izlanishlari shuni ko’rsatdiki, har bir dindagi ayrim ta’limotlar vaqt o’tishi bilan o’z mohiyatidan ma’lum darajada uzoqlashadi va jamiyatda unga nisbatan tanqidiy munosabatlar shakllanadi. Bhakti harakati, aynan, shunday jarayonlarda vujudga kelgan islohotchilik harakati hisoblanib, Bhaktining ijtimoiy asoslari uning islohotchilik xususiyatida namoyon bo’ladi. Bu harakat hindular dinini isloh qilish yo’lida shakllanadi va o’zining kastachilik tizimiga qarshi qaratilgan tenglik va sadoqat g’oyalari bilan hind jamiyatiga kirib keldi.

Bhakti ta’limotining islohoti insonni tubdan o’zgartirishga, ya’ni uning qalbi va ongini isloh qilishga qaratilgan, shu bois uning falsafiy asoslari inson ma’naviyati bilan bog’liq bo’lib, uning asosiy g’oyalari *mehr*, *sadoqat* va *bag’rikengliklardir*. Yuqorida sanab o’tilgan yetakchi g’oyalar Bhaktini veda va buddaviylikdan keyin paydo bo’lgan mafkura sifatida yoyilishiga dastak vazifasini bajardi. Prabxudyal Mittal bhakti harakatning Hindiston tarixida tutgan o’rni haqida gapirib: “*Bhakti-hind diniy mafkuralari olamida veda va buddaviylikdan keying ong inqilobini amalga oshirgan uchinchi mafkuradir*”, - degan.¹

O’rta asrlarga kelib kastachilik tizimi asosida jamiyatda tengsizlik kuchayib ketishi natijasida din insonlar hayotiga to’g’anoq bo’la boshladi. Xalq orasida hinduizm targ’ibotida oliy o’ringa ega bo’lgan brahmanlar ham ma’naviy jihatdan qashshoqlashib, ular jamiyatdagi mavqeilarini asta sekinlik bilan yo’qota boshlashdi. Kshatriylar² esa askincha, brahmanlardan ham kuchayib, hatto, brahmanlarga bilim berish darajasiga yetib bordilar. Hinduizmning mutaassibliigi sababli oddiy xalqqa ibodatxonalarga kirish man etildi, natijada xalq orasida norozichilik va nizolar yuzaga kelib, jamiyatda brahmanlarga qarshi turli xil uyushgan guruh va sektalar vujudga kela boshladi. Bu jarayonlarning kuchayib borishini kuzatayotgan faylasuflar zudlik bilan qadimda yashab o’tgan bhaktlarning³ yashash tarzi, g’oyalari, ular aytib o’tgan

¹ Ашрафян К.З. История Индии в средние векаю –М., 1969.

² Brahmanlardan keyingi ikkinchi – harbiylar kastasi.

³ Xuddi shunday zotlar, ya’ni bhaktlar nomini “Mahabharat” eposda ham, qadimiy manbalar bo’lgan Puranlar, Vedanta va boshqa turli manbalarda uchratish mumkin.

o’g’itlari va ularning diniy qarashlarini o’rganib chiqqan holda hinduizmni ikki g’oya asosida isloh qilishga qaror qilishdi. Faylasuflar xalq orasida “*Yaratgan oldida barcha teng*” va “*Yaratganga mehrli va sadoqatli bo’lish*”⁴ g’oyalarini targ’ib etishga kirishdilar. Bhaktining bu ikki g’oyasi sekinlik bilan hindiyalar hayotini yaxshilashga xizmat qila boshladi.

Bhakti ta’limotida mehr-sadoqat va tenglik bosh mavzu qilib olinganligi sababli u xalqning ishonchini qozondi va tez sur’atlarda bhakti tarafdorlari soni ortib bora boshladi. Jahonning buyuk shoirlaridan biri Rabindranat Tagor bhakti harakatiga quyidagicha izoh beradi: “*Yaratgan Xudo nafaqat din peshvolariniki, balki xalqniki ham ekanligi, shu bois oddiy bir inson ham o’z mehr-sadoqati bilan Xudoga yetishishi mumkin ekanligini tushunish kutilmaganda hind xalqini chidab bo’lmaydigan haqoratlardan ozod etdi. Bu xushxabar butun mamlakat bo’ylab yoyilganidan keyin paydo bo’lgan adabiyot esa butunlay yangi, xalq adabiyoti bo’ldi*”⁵.

Faylasuflar bhaktiga asos solishib, uni xalq orasida targ’ib qilish ishlarini amalga oshirganlar. Bhaktining rivojlanishi hamda keng ko’lamda yoyilishida faylasuflarning eng asosiy yutug’i shu bo’ldiki, ular bhakt bo’lish uchun lozim bo’lgan hayot tarzida, avvalambor, o’zlari yashab ko’rsatdilar, uning to’g’ri ekanligini amalda isbotlab berdilar. Bu yo’lni to’g’ri ekanligiga ishongan va guvoh bo’lgan xalq vakillari butunlay bhakti ta’limotini tanlay boshladilar. Qisqa vaqt ichida bhakti ta’limoti omma orasida qo’llab-quvvatlanib, o’z davrining yetakchi mafkurasiga aylandi. Janubiy va shimoliy bhakti adabiyotini qiyosiy o’rganishga bag’ishlangan tadqiqotda S.D.Bansal ham “*O’rta asrlarda bhaktining dinlardan ham ahamiyati kuchayib ketishi jamiyatda brahmanlar mavqeining pasayib ketishi bilan izohlanadi*”⁶- degan fikrni bildirib o’tgan.

Bhakti ta’limotining yoyilishi ikki hududiy bo’linish asosida amalga oshib, ularda o’rta asr faylasuflari faoliyat olib borishgan. Agar janubiy bhaktini ommalashtirish ishlarini faylasuflar *Shankaracharya* (VIII asr), *Ramanujya* (XI asr) va *Ramanandlar* (XIII asr) olib borgan bo’lsa, shimolda bhaktini targ’ib qilgan eng faol faylasuflar bu *Madxavacharya* (XIV asr), *Nimbarkacharya* (XIV asr), *Vallabxacharya* (XV asr), *Chaytannya* (XVI asr), *Xit Harivansh* (XVI asr), *Shankardev* (XVI asr)lardir.⁷ Bu faylasuflar bhaktini ommaga tanitishda, uning rivojida o’zlarining ulkan xissalarini qo’shishgan. Har bir yangi din yoki mazhab jamiyat orasiga kirib kelishi xalqparvar va demokratik tamoyillarga asoslangan nazariya, yangi tuzilgan qonun va qoidalar bilan belgilanadi. Lekin, vaqt o’tishi bilan bu kabi aspektlarayrim bilimsiz targ’ibotchilar qo’liga tushgandan so’ng o’zining asl mohiyatini yo’qotadi, bu esa dinning xalqdan va o’z navbatida xalqning dindan uzoqlashishiga olib keladi. Bu kabi salbiy jihatlarni oldini olish maqsadida bhakti targ’ibotchilari dinning asl mohiyatini nima tashkil etishini, din kim va nima uchun

⁴ Паевская Е.В. Идеи равенства от бхактов (XV-XVI вв.) до Раммохан Роя (первая треть XIX в.) – Москва, 1970.

⁵ Сазанова Н.М. Некоторые особенности поэзии бхакти XVI в. На языке брадж. – в кн.: Литературы Индии. – М., 1979. – С. 65.

⁶ Гусева П.Р. Индуизм. – М., 1977.

⁷ Satimov G’. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. – T.: G’. G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2008.

yaratilgan, uning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat degan savollarga javob topishib, uni xalqqa shu bilan din peshvolariga sodda va asosli tarzda tushuntirib berishga harakat qilganlar. Faylasuflar bhakti yo’lini tub mohiyatini tushuntirib berishda: Yaratganga yetishish yo’lida hech qanday din yoki brahmanlar zarur bo’lmasligi, inson Yaratganning mehr-muruvvatiga erishmoqchi bo’lsa, inson kuchli e’tiqod va shu e’tiqodga sadoqatli bo’lishi lozimligini va bu yo’lda unga hech qanday ibodatxona yoki din peshvolari yordam berolmasligini targ’ib qilishgan. Bunday sodda va tushunarli bo’lgan g’oyalar xalq e’tiborini o’ziga jalb qilgan holda hind jamiyatida Ram va Krishna ma’budlariga e’tiqodning tiklanishiga va chuqur ishonch uyg’onishiga omil bo’ldi. Faylasuflar endilikda bhaktining targ’ib etilishida “Ramayana” va “Mahabharat” eposlaridan unumli foydalana boshlashdi. Boburiy shaxzodalardan bo’lmish Akbarshoh ham “Mahabharat” va “Ramayana”ni juda qadrlab, bu asarlar o’zining falsafiy, tarixiy va diniy qimmatini bilan hind xalqi ongi va ruhiyatining o’sishi rivojlanishiga o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatgan, deb hisoblagan.⁸

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, bhakti ta’limoti va adabiyoti aynan Boburiylar sulolasi davrida, shu sulola hukmdorlarining qo’llab quvvatlashi natijasida o’zining taraqqiyot cho’qqisiga erishdi. Shu bilan birgalikda bhakti ta’limoti rivoji hind xalqi hayotiga yorug’lik olib keldi. Tabaqalanish ya’ni kastachilik tugatilib, barcha insonlar teng yashay boshlashdi. Bu kabi o’zgarishlarda bir vatan farzandlari bo’lgan boburiy shaxzodalarning hissalarini beqiyosligi Bhakti adabiyoti va ta’limotiga oid yangi manbalarni tadqiq etish asosida ham o’z isbotini topib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Паевская Е.В. Идеи равенства от бхактов (XV-XVI вв.) до Раммохан Роя (первая треть XIX в.) – Москва, 1970.
2. Сазанова Н.М. Некоторые особенности поэзии бхакти XVI в. На языке брадж. – в кн.: Литературы Индии. – М., 1979.
3. Гусева П.Р. Индуизм. – М., 1977.
4. Satimov G’. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. – T.: G’. G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2008.
5. Berk S.M. Akbarshoh boburiylarng eng buyugi. – T., 2010.
6. Ашрафян К.З. История Индии в средние векаю – М., 1969.
7. Т. А. Ходжайева, U.U. Muhibova. Hindiston xalqlari adabiyoti 5. – T., 2016.

⁸ Berk S.M. Akbarshoh boburiylarng eng buyugi. – T., 2010